

“UMUMIY PEDAGOGIKA” FANIDAN
YAKUNIY IMTIHON UMUMIY SAVOLLARI

1. O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda asos bo‘luvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimini ilmiy tahlil qiling.
2. Ta’lim tizimidagi “uzluksizlik” tamoyilining konseptual mazmunini ochib bering.
3. Raqamli ta’limni rivojlantirish yo‘nalishlarining ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini baholang.
4. Kompetensiyaviy yondashuvning ustunlik va cheklovlarini qiyosiy tahlil qiling.
5. O‘zbekiston ta’lim tizimini xalqaro reytinglar mezonlari bilan solishtiring.
6. Ta’lim sifatini boshqarishda davlat va nodavlat sektorlarining o‘zaro ta’sir mexanizmini tushuntiring.
7. Kadrlar tayyorlash milliy modeli zamonaviy talablarga ko‘ra qanday yangilanmoqda?
8. Ta’lim islohotlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilish mexanizmini izohlang.
9. Inson kapitalini rivojlantirishda ta’limning strategik vazifalarini asoslang.
10. Global ta’lim trendlarining O‘zbekiston ta’lim tizimiga ta’sirini tahlil qiling.
11. Tarbiya jarayonida amal qiladigan asosiy psixologik va pedagogik qonuniyatlarni tahlil qiling.
12. Tarbiya shaxsning ijtimoiylashuvida qanday funksional rol o‘ynaydi?
13. Tarbiyaviy faoliyat maqsad va vazifalarini samaradorlik mezonlari asosida tahlil qiling.
14. Tarbiya mazmunining antropologik asoslarini izohlang.
15. Zamonaviy tarbiyada motivatsion mexanizmlarning o‘rni.
16. Tarbiya mazmunini shakllantirishda milliy an’analar rolini tahlil qiling.
17. Tarbiyaviy jarayonda kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati.
18. Tarbiyaning ijtimoiy-ma’naviy funksiyalariga zamonaviy misollar keltiring.
19. Tarbiyaviy jarayonda yuzaga keladigan pedagogik kolliziyalarni (ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan turli qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar va to‘qnashuvlar) baholang.
20. Tarbiyaning mazmunini integrativ yondashuv (o‘quvchilarda dunyo haqida kengroq va to‘liq tasavvur hosil qilishga yordam beradigan usul) asosida sharhlang.
21. Tarbiya jarayonining tizimlilik tamoyilini izohlang.
22. Differensial yondashuv (har bir o‘quvchining imkoniyatiga qarab o‘qitish) ning tarbiyadagi amaliy qo‘llanilishini tahlil qiling.
23. Individuallashtirish va personallashtirishning o‘zaro farqlarini tushuntiring.
24. Tarbiya jarayoni bosqichlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tahlil qiling.
25. Tarbiya jarayonining samaradorlik mezonlarini modellashtiring.
26. Shaxs faolligini oshiruvchi ichki va tashqi omillarni aniqlang.
27. Tarbiyadagi ichki-tashqi omillar o‘zaro ta’sirini izohlang.
28. Tarbiyaning adaptivlik xususiyatlarini tushuntiring.
29. Muhitning tarbiyaga ta’sirini ilmiy asoslang.
30. Zamonaviy ta’lim kontekstida tarbiyaviy jarayonning xususiyatlarini tahlil qiling.
31. Oila institutining shaxs kamolotiga ta’sir mexanizmini izohlang.

32. Oila psixologik iqlimining tarbiyadagi oʻrnini yoritib bering.
33. Oila–maktab hamkorligining zamonaviy modellarini tahlil qiling.
34. Ota-onaning pedagogik madaniyati tarkibini tushuntiring.
35. Oilaviy muloqotning tarbiyaga taʼsirini ilmiy asosda baholang.
36. Oila tiplarining tarbiyaga taʼsiri boʻyicha qiyosiy tahlil qiling.
37. Axloqiy tarbiyaning oilada shakllanish mexanizmini izohlang.
38. Oilaviy tarbiya resurslarining samaradorlik mezonlarini aniqlang.
39. Pedagogik bilimsizlikning tarbiyaga salbiy taʼsirini tahlil qiling.
40. Oilaviy nizolarning tarbiyaga taʼsir mexanizmini izohlang.
41. Oila pedagogikasining ilmiy-metodologik apparatini tushuntiring.
42. Oila tarbiyasining asosiy paradigmalari oʻrtasidagi farqlarni tahlil qiling.
43. Tadqiqot metodlarining samaradorligini baholang.
44. Oila pedagogikasining nazariy asoslarini shakllantiruvchi omillarni aniqlang.
45. Zamonaviy oila pedagogik modelini nazariy asosini yarating.
46. Kognitiv yondashuv asosida oilaviy tarbiya strategiyalarini tushuntiring.
47. Oila pedagogik faoliyatida rivojlantiruvchi vazifalarning oʻrni.
48. Diagnostika metodlaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qiling.
49. Madaniy yondashuvning afzalliklarini izohlang.
50. Oilaviy muammoli vaziyatlarni tahlil qilish metodikasini tushuntiring.
51. Ilmiy dunyoqarash shakllanishining psixologik-pedagogik asoslarini tahlil qiling.
52. Ilmiy dunyoqarash va tanqidiy fikrlashning bogʻliqligini tushuntiring.
53. Ilmiy fikrlashni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqing.
54. Ilmiy dunyoqarashga ijtimoiy omillarning taʼsirini baholang.
55. STEM taʼlimining ilmiy dunyoqarashga taʼsirini tahlil qiling.
56. Ilmiy dunyoqarashning integrativ modelini asoslang.
57. Falsafaning ilmiy dunyoqarash shakllanishidagi oʻrnini izohlang.
58. Dalil va tajribaning ilmiy fikrlashdagi rolini baholang.
59. Oʻqituvchi shaxsiy namunasining dunyoqarashga taʼsirini tahlil qiling.
60. Gender va yosh omillarining ilmiy dunyoqarashga taʼsirini izohlang.
61. Didaktikaning asosiy kategoriyalarini tizimlashtiring.
62. Taʼlim jarayonining didaktik qonuniyatlarini izohlang.
63. Didaktik tamoyillarni zamonaviy taʼlim kontekstida tahlil qiling.
64. Didaktik jarayonning ilmiy modelini yarating.
65. Didaktika va shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim integratsiyasini izohlang.
66. Taʼlim motivatsiyasining didaktik jarayondagi rolini tushuntiring.
67. Takrorlashning didaktik funksiyasini asoslang.
68. Taʼlim mazmunining strukturasini tahlil qiling.
69. Didaktik tizimlar turlarini qiyosiy tahlil qiling.
70. Didaktik jarayonda pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini tushuntiring.
71. Pedagogik diagnostikaning nazariy asoslarini tushuntiring.
72. Diagnostika metodlarini tasniflang.

73. Validlik va ishonchlilik mezonlarini ilmiy asoslang.
74. Formativ va summativ diagnostikani solishtiring.
75. Pedagogik monitoring tizimini modellashtiring.
76. Diagnostik jarayonni raqamlashtirishning afzalliklarini izohlang.
77. Refleksiya diagnostikasining ahamiyatini tahlil qiling.
78. Diagnostik natijalar asosida ta'limni optimallashtirish yo'llarini tushuntiring.
79. Pedagogik va psixologik diagnostika farqlarini tushuntiring.
80. Diagnostika natijalaridan noto'g'ri foydalanish oqibatlarini baholang.
81. Kvalimetriyaning ta'lim jarayonidagi o'rnini izohlang.
82. Ta'lim sifatini o'lchash indikatorlarini tizimlashtiring.
83. Kvalimetrik modellashtirish asoslarini tushuntiring.
84. Kvantitativ (miqdoriy baholash) baholash yondashuvining afzalliklarini tahlil qiling.
85. Kvalimetrik testlar ishlab chiqish jarayonini tushuntiring.
86. Kvalimetriya boshqa baholash tizimlaridan qanday farq qiladi?
87. O'qituvchi faoliyatini baholashda kvalimetriyaning imkoniyatlarini tahlil qiling.
88. Ta'lim sifatiga tashxis qo'yishning matematik modellarini sharhlang.
89. Kvalimetrik xatoliklar tahlilining ahamiyatini izohlang.
90. Kvalimetriya asosida ta'limni takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqing.
91. Sharq uyg'onish davrida ilmiy maktablar shakllanishiga ta'sir qilgan omillarni tahlil qiling.
92. Allomalar pedagogik qarashlarining umumiy jihatlarini izohlang.
93. Ibn Sino ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalarini tahlil qiling.
94. Al-Farobiyning ilmiy metodologiyasining ta'limga ta'sirini izohlang.
95. Uyg'onish davri maktab tizimi strukturasini tushintirib bering.
96. Axloqiy tarbiya haqidagi qarashlarni allomalar misolida solishtiring.
97. Uyg'onish davri yutuqlarining zamonaviy ta'limga ta'sirini baholang.
98. Sharq mutafakkirlarining ta'lim paradigmasini izohlang.
99. Sharq pedagogik merosi va bugungi ta'lim talablari uyg'unligini tahlil qiling.
100. Sharq uyg'onish davri tarbiya tamoyillarini sharhlang.
101. Uyg'onish davridagi ta'lim tizimining yangiliklarini tahlil qiling.
102. Sharq allomalari ta'lim metodikasining ustuvor jihatlarini izohlang.
103. Ilm-fan yutuqlarining tarbiyaga ta'sirini asoslang.
104. Sharq pedagoglarining didaktik qarashlarini tahlil qiling.
105. Uyg'onish davrida yoshlar tarbiyasi bo'yicha ilgari surilgan g'oyalarni yoritib bering.
106. Amaliy mashg'ulotlar metodikasini sharhlang.
107. Sharq va zamonaviy ta'limni qiyosiy tahlil qiling.
108. Ilmiy maktablar shakllanish jarayonini tushuntiring.
109. Ta'lim-fan integratsiyasining tarixiy ildizlarini tahlil qiling.
110. Uyg'onish davri ta'lim an'alarining hozirgi davrga ta'sirini izohlang.
111. Ma'rifatparvarlik pedagogikasining asosiy tamoyillarini izohlang.

112. Yevropada shaxs erkinligi g'oyasining pedagogik evolyutsiyasini tahlil qiling. 113. Russo va Lokkning tarbiya haqidagi qarashlarini solishtiring.
114. Yevropa ma'rifatparvarligining ta'lim tizimiga qo'shgan hissasini izohlang.
115. Kognitiv taraqqiyot nazariyalari va ma'rifatchilik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiling.
116. Yevropa pedagogik g'oyalari O'zbekistonda qanday aks etmoqda? 117. Pestalozzining tarbiya haqidagi qarashlarini sharhlang.
118. Ma'rifatchilik davrida axloqiy tarbiya masalalarini tahlil qiling.
119. Komenskiy ta'lim prinsiplari bilan ma'rifatchilik g'oyalarini qiyoslang.
120. Ma'rifatchilik davrining bugungi ta'limga ta'sirini baholang.
121. Komenskiy pedagogikasining metodologik asoslarini tushuntiring.
122. Komenskiyning "tabiiy muvofiqlik" tamoyilini tahlil qiling.
123. "Buyuk Didaktika" asarining ilmiy ahamiyatini sharhlang.
124. Komenskiy sinf-dars tizimining afzalliklarini baholang.
125. Komenskiyning tarbiya haqidagi qarashlarini zamonaviy pedagogika bilan solishtiring.
126. Komenskiyning insonparvarlik g'oyalarining ta'limga ta'sirini tahlil qiling.
127. Komenskiy didaktik tizimining bugungi ta'limga moslashuv darajasini baholang. 128. Komenskiyning didaktik tamoyillarining ilmiy asoslarini tushuntiring.
129. Komenskiy g'oyalarining global ta'lim tizimiga ta'sirini tahlil qiling.
130. Komenskiyning pedagogik merosining hozirgi ta'lim siyosatidagi aksini sharhlang. 131. Pedagogika fanining predmetini ilmiy asoslang.
132. Pedagogik tadqiqot metodlarining tasnifini izohlang.
133. Ilmiy-tadqiqot jarayonida kuzatish metodining ahamiyatini tahlil qiling.
134. Eksperiment metodining pedagogik tadqiqotlardagi o'rnini izohlang.
135. Pedagogik tadqiqotlarda statistik usullarning qo'llanishini tushuntiring.
136. Ilmiy muammo qo'yish va gipoteza yaratish bosqichlarini tahlil qiling.
137. Pedagogik tadqiqotlar samaradorligini oshiruvchi mezonlarni sharhlang.
138. Zamonaviy ilmiy tadqiqot metodologiyasining pedagogikaga ta'sirini baholang.
139. Pedagogik tadqiqotda etik me'yorlarni izohlang.
140. Ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq qilish mexanizmini tahlil qiling. 141. Tarbiya metodlarining ilmiy tasnifini sharhlang.
142. Tarbiyaning og'zaki, amaliy va rag'batlantiruvchi metodlarini tahlil qiling. 143. Jamoaviy tarbiya shakllarining samaradorligini baholang.
144. Tarbiya metodlarini tanlashda psixologik mezonlarni izohlang.
145. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshiruvchi zamonaviy metodlarni tavsiflang. 146. Tarbiyada individual yondashuvning metodik asoslarini tushuntiring.
147. Axloqiy tarbiyada namuna metodining o'rnini tahlil qiling.
148. Tarbiya jarayoniga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillarni yoritib bering.
149. Tarbiyada ota-ona, maktab va jamiyatning hamkorlik metodlarini tahlil qiling.
150. Tarbiya metodlarining innovatsion shakllarini izohlang.

